

**O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash xizmati  
tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga  
qo'riqlash xizmatini ko'rsatish bo'yicha**

**SH A R T N O M A**

Namangan.sh

2020 -son

"11" zubor 2022 yil

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Namangan viloyati Qo'riqlash boshqarmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi boshqarma boshlig'i podpolkovnik **X.E.Abdullayev** (keyingi o'rnlarda "Ijrochi" deb yuritiladi) bir tomonidan, **Kosonsoy tumani** bolalar-o'smirlar sport maktabi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi **direktori** NC. Maynar monob (keyingi o'rnlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) ikkinchi tomonidan, birgalikda "Tomonlar" deb yuritiladi, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

**1-BOB. SHARTNOMA PREDMETI**

1. Ijrochi, Milliy gvardiya Qo'riqlash xizmati, saf, harbiylashtirilgan va soqchilik qo'riqlashi ko'rinishidagi qorovullik bo'linmasi va texnik qo'riqlash markazidan (keyingi o'rnlarda TQM deb yuritiladi) foydalangan holda Buyurtmachining mulkiga qo'riqlash xizmatini ko'rsatish majburiyatini, Buyurtmachi esa mazkur Shartnomaga shartlariga asosan o'z vaqtida ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovlarini amalga oshirish majburiyatini oladi.

**2-BOB. UMUMIY SHARTLAR**

2. Buyurtmachi Qo'riqlash boshqarmasi Kosonsoy tumani Qo'riqlash bo'limi «TQM» tomonidan Kosonsoy tumani, Kosonsoy shaharchasida joylashgan Kosonsoy tumani 14-sonli bolalar-o'smirlar sport maktabi qorovulkxonasini **har kuni soat 09.00dan 16.00ga qadar** Tashvish tugmasi orqali qo'riqlash maqsadida (keyingi o'rnlarda ob'ekt deb yuritiladi) Ijrochiga topshiradi, Ijrochi qabul qiladi.

3. Ob'ektning qo'riqlash chegaralari (imoratlari, qurilmalari), postlarining (yo'nalishlari) joylashuvi chizma-rejada ko'rsatiladi va mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

4. Ob'ektdagi kirish-chiqish, ichki ob'ekt rejimi Buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadigan kirish-chiqish va ichki ob'ekt rejimini tashkil etish to'g'risidagi yo'riqnomasiga muvofiq amalga oshiriladi hamda mazkur Shartnomaga ilova qilinib uning ajralmas qismi hisoblanadi (jismoniy qo'riqlanadigan ob'ektlar).

5. Ob'ektni texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlash va ta'mirlash Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi (texnik qo'riqlash vositalari Ijrochining aybi bilan ishdan chiqqan hollar bundan mustasno).

6. Mazkur Shartnomaga kuchga kirgan kundan boshlab, 30 ish kuni ichida Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati Tashvish tugmasi orqali qo'riqlash turi yo'lga qo'yiladi.

7. Buyurtmachi ko'zdan kechirish dalolatnomasida ko'rsatilgan talablarni bajarilmaganda Ijrochi qo'yilmaydi, qo'yilgan Ijrochi esa chaqirib olinadi.

**3-BOB. TO'LOVLARNI AMALGA OSHIRISH**

8. Mazkur Shartnomaga asosida ko'rsatiladigan xizmatlar narxi belgilangan tariflarga mos holda quyidagicha hisoblanadi:

post-soat hisobida qo'riqlash xizmati oyiga a) post-soat hisobida qo'riqlash xizmati oyiga 699998 (oxsur roj nafis qonimligi uchun, nafis roj surʼu) so'm, 72 oyga 3099844 (naxsh xusnidan oʻsish uchun, naxsh surʼu) so'm;

9. Ijrochi xizmatlari uchun to'lovlariga o'zgartirishlar kiritish qonun hujjalariiga muvofiq ushbu xizmatlar turiga yangi tariflar tasdiqlangan hollarda qayta ko'rib chiqiladi.

10. Buyurtmachi mazkur Shartnomaga imzolangan kundan boshlab, xar oylik to'lovlarini dalolatnomada tuzilgach 5 kunlik muddat ichida 100 foizi miqdorida amalga oshiradi.

11. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblangan Buyurtmachi mazkur Shartnomaning 10-bandida ko'rsatilgan oylik to'lovni (avans to'lovini) o'z vaqtida to'lamasa, Ijrochi Buyurtmachiga akseptsiz to'lov talabnomasini taqdim qilishga haqlidir.

Mazkur Shartnomaga bekor qilingan hollarda Ijrochi Buyurtmachi bilan to'langan to'lovlar bo'yicha qayta hisob-kitobni amalga oshirishi zarur.

#### **4-BOB. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

12. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

Ijrochidan belgilangan qo'riqlash tartibiga rioya etishini talab qilish;

xizmat ko'rsatish jarayonida Ijrochining xodimlari tomonidan intizomni buzish holatlarini to'xtatish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha kerakli choralar ko'rlishini Ijrochidan talab qilish;

Ijrochining xizmatni tashkil qilishi va amalga oshirishini, qo'riqlash turlariga mos bo'lgan kiyimbosh, kiyim-bosh anjomlari (ekipirovkasi), quroslaslahalarining mavjudligini nazorat qilish;

Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma shartlari buzilishining har bir holati bo'yicha Ijrochining vakili ishtirokida ikki nusxada dalolatnomaga tuzish;

Ijrochining aybi bilan yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlangan taqdirda Ijrochidan ularni bartaraf etishni talab qilish;

Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma talablari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni undirish (sudning qarori kuchga kirganidan so'ng).

13. Buyurtmachining majburiyatlari:

mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan **2025 yil "24." sentyabr** dagi ko'zdan kechirish (birlamchi) dalolatnomasiga asosan qo'riqlashga topshiriladigan ob'ektni, alohida xonalarni texnik mustahkamlash bo'yicha tadbirlarni bajarish, o'z hisobidan texnik qo'riqlash vositalari (ob'ektning turiga qarab post qurilmalari va uni isitish uskunalari, postlararo aloqa, ichki va shahar telefonlari, yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi, ob'ekt perimetri bo'ylab kerakli yoritish vositalari, qulflar, turniket, kuzatish maydonchasi, shaxsiy tekshirish xonalari, ishchi va xizmatchilarning shaxsisi buyumlarini saqlash xonalari, yong'in o'chiruvchi vositalar va boshqalar) bilan jihozlash va zarur hollarda ularni ta'mirlash;

har qanday moddiy qimmatliklarni ob'ekt hududining devor to'sig'idan 15 metr uzoqlikda (ob'ekt joylashuvini hisobga olgan holda) joylashtirish (jismoniy qo'riqlanadigan ob'ektlarda);

Ijrochi bilan birgalikda har chorakda kamida bir marta ob'ektning texnik mustahkamligini, qo'riqlashning texnik vositalari bilan ta'minlanganini, shu jumladan yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi holatini tekshirish ko'rigini o'tkazish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlarini, Ijrochini bu haqda xabardor qilish muddati va tartibini ko'rsatgan holda, tomonlarning vakillari ishtirokida dalolatnomaga tuzish;

belgilangan qo'riqlash rejimi talablarini bajarish va texnik qo'riqlash vositalarining tegishli holatini ta'minlash;

binoda rejalashtirilayotgan kapital ta'mirlash ishlari, ob'ektlarni qayta jihozlash, ish rejimini va ishlarni o'zgartirish, moddiy qimmatliklarni saqlash joyini o'zgartirish yoki yangilarini ochish, ob'ekt yoki uning bir qismini boshqa shaxslarga ijaraga berish yoki mulk huquqini o'tkazish, qo'riqlash turini, postlar dislokatsiyasini o'zgartirish yoki qo'shimcha qo'riqlash signalizatsiyasi vositalarini o'rnatish bo'yicha tadbirlarning o'tkazilishi haqida Ijrochini bunday ishlarning boshlanishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirish (ogohlantirilmagan holda postlarni o'zgartirilganda, ijrochi shartnomada ko'rsatilgan manzildagi ob'ekt xavfsizligiga javob beradi);

ob'ektda ish kuni yakunida qo'riqlash signalizatsiyasini yoqish, uning nosozligi holatida bu haqda Ijrochini ogohlantirish va nosozlik bartaraf etilmagunga qadar ob'ektni tashlab ketmaslik va belgilangan tartibda qo'riqlashga topshirish. Ob'ektni qo'riqlashga topshirganlik haqida TQMni xabardor qilib, 5 daqiqadan so'ng ob'ektning qo'riqlashga qabul qilinganligi haqida ishonch hosil qilish;

ob'ektni, yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasini bilan jihozlangan har bir alohida xonani kundalik qo'riqlashga topshirish, eshiklar qulfi, derazalar, darchalar, lyuklar, ventilyatsiya teshiklari yopilganligini hamda avtonom qo'riqlash signalizatsiyasini va hududning yoritilish holatini tekshirish, qo'riqlanadigan binolarda elektr jihozlarining, boshqa yong'in manbalarining yoqilgan holda qolib ketishining oldini olish va begona shaxslarning ob'ektda qolishiga yo'l qo'ymaslik (buyurtmachining aybi bilan sodir etilsa zarar qoplanmaydi);

qo'riqlanayotgan hududda binodan tashqarida joylashgan moddiy qimmatliklarning miqdori, assortimenti, o'ralgan yoki qadoqlangan holatda qayta hisob-kitob asosida qabul qilish-topshirish jurnalida ro'yxatdan o'tkazgan holda hamda Ijrochi va Buyurtmachi vakillari tomonidan imzolangan holda qo'riqlashga topshirish (jismoniy qo'riqlanadigan ob'ektlar);

maxsus jurnalda o'z vakili tomonidan imzo qo'yish yo'li bilan ob'ektlarni, alohida xonalarni qo'riqlashga topshirish, qo'riqlash tugagandan so'ng qo'riqlashdan chiqarish;

qo'riqlanadigan xonalarning butunligi buzilganligi haqida yoki ob'ektga begona shaxslarning kirishi natijasida zarar yetkazilganligi alomatlari mavjud bo'lganda zudlik bilan Ijrochini xabardor qilish va ob'ektga Ijrochi vakili yetib kelguniga qadar ko'rsatilgan joylarning daxlsizligini ta'minlash(buyurtmachining aybi bilan sodir etilsa zarar qoplanmaydi);

begona shaxslarga qo'riqlash va signalizatsiya tamoyillari va tizimini, shuningdek berilgan pult raqamlarini oshkor qilmaslik;

Ijrochi vakillarini ob'ektdagi ichki tartib va texnika xavfsizligi qoidalari bilan ularning o'z vazifalarini bajarishiga oid qismi bilan tanishtirish.

#### 14. Ijrochining huquqlari:

Buyurtmachidan ob'ektda o'rnatilgan kirish-chiqish va ichki tartibga rioya qilinishini talab qilish; mazkur shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni so'rash va olish;

ko'zdan kechirish dalolatnomasida ko'rsatilgan qo'riqlash-texnika vositalarini joriy qilish bo'yicha Buyurtmachiga tavsiyalar berish;

Uchbu shartnomada ko'rsatilgan vaqtlardagina xavfsizlikni bo'yniga olish;

Sud qarori kuchga kirguniga qadar yetkazilgan zararni qoplamaslik.

#### 15. Ijrochining majburiyatlar:

ob'ektda postlar dislokatsiyasiga (patrul yo'nalishiga) muvofiq qo'riqlash naryadini joriy etish (jismoniy qo'riqlanadigan ob'ektlar);

mazkur Shartnomada va uning ilovalariga muvofiq ob'ektni hamda qo'riqlashga topshirilgan moddiy qimmatliklarni qo'riqlashni tashkil etish va ta'minlash;

qo'riqlanayotgan hududdagi, lekin binodan tashqarida joylashgan moddiy qimmatliklarning miqdori, assortimenti, o'ralgan yoki qadoqlangan holatini tekshirib, qayta hisob-kitob asosida qabul qilish-topshirish jurnalida ro'yxatdan o'tkazgan holda hamda Ijrochi va Buyurtmachi vakillari tomonidan imzolangan holda qabul qilib olish (jismoniy qo'riqlanadigan ob'ektlar);

ob'ektda kirish-chiqish va ob'ekt ichki tartibiga rioxaya etish, ob'ekt hududiga belgilangan tartibda moddiy qimmatliklar olib kirilishi va chiqilishini nazorat qilish (jismoniy qo'riqlanadigan ob'ektlar);

kirib-chiqish (propusk) rejimi mavjud bo'lgan ob'ektlarda kun davomida nazoratdan o'tkazish punktidan bir martalik kirish ruxsatnomasi bilan ob'ektga kiritilgan tashrif buyuruvchilarining chiqib ketishini ta'minlash (jismoniy qo'riqlanadigan ob'ektlar);

ob'ektni qo'riqlash vaqtida joydagi yong'in xavfsizligi qoidalaring bajarilishini ta'minlash;

ob'ektda yong'in chiqishi yoki yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasining ishlab ketishi holatida zudlik bilan yong'in xavfsizligi bo'limi (101)ga yoki Buyurtmachiga xabar berish;

ob'ektga begona shaxslarning kirib ketganligi aniqlanganda zudlik bilan Buyurtmachining vakilini chaqirish va ob'ektning daxlsizligini ta'minlash;

yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi ishlab ketgan holatlarda signalizatsiyaning ishlab ketish sabablarini aniqlash va ob'ektni qayta topshirish uchun Buyurtmachi vakilini chaqirtirish, tekshirish natijalari va ob'ektni qayta topshirish bo'yicha ikki nusxada dalolatnama tuzish;

Ijrochining xodimlari tomonidan xizmatni tashkil qilish va amalga oshirish, qo'riqlash turlariga mos bo'lgan kiyim-bosh, kiyim-bosh anjomlari (ekipirovkasi), qurol-aslahalarining mavjudligini ta'minlash;

ob'ektni qo'riqlashga qabul qilganda va topshirganda ob'ektdagi texnik mustahkamlik bo'yicha va qo'riqlashning texnik vositalari bilan bog'liq aniqlangan barcha kamchiliklar haqida Buyurtmachini xabardor qilish;

Buyurtmachi bilan birgalikda har chorakda kamida bir marta ob'ektning texnikaviy jihatdan mustahkamligini, qo'riqlashning texnik vositalari bilan ta'minlanishini, jumladan yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasini tekshirish ko'rigin o'tkazish, Buyurtmachi tomonidan aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etish muddatlari hamda Ijrochini bu haqda xabardor qilish muddati va tartibini ko'rsatgan holda tomonlarning vakillari ishtirokida ikki nusxada dalolatnama tuzish;

Ijrochi tomonidan mazkur Shartnomada talablarining har bir buzilishi bo'yicha Ijrochi va Buyurtmachining vakillari ishtirokida ikki nusxada dalolatnama tuzish va bir nusxasini Ijrochining rahbariga tegishli choralar ko'rish uchun berish;

qo'riqlanayotgan xonalar buzilganligi yoki mulkka yetkazilgan zarar to'g'risida Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati navbatchilik qismi (69-227-28-43)ga va Buyurtmachi (+998 95 0056353)ga zudlik bilan xabar berish, Milliy gvardiya Qo'riqlash xizmati vakili yetib kelgunga qadar hodisa yuz bergen joyning daxlsizligini ta'minlash.

## **5-BOB. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

16. Mazkur Shartnomaning 10-bandida ko'rsatilgan summaning Buyurtmachi tomonidan o'z vaqtida to'lamaganligi uchun Buyurtmachi Ijrochiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'limgan miqdorda penya (jarima) to'laydi;

17. Ijrochining xodimi postda va patrul yo'nalişlarida bo'limganida Ijrochi Buyurtmachiga har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorda penya (jarima) to'laydi, biroq bunda ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim (jismoniy qo'riqlanadigan ob'ektlar).

18. Penya (jarima)ni to'lash Buyurtmachi va Ijrochini o'z majburiyatlarini buzish oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

19. Ijrochi mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi natijasida Buyurtmachiga yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgar bo'ladi.

Ijrochining aybi bilan zarar yetkazilganligi aniqlangan hollarda zarar to'liq miqdorda qoplanadi (Sud qarori kuchga kirganidan so'ng).

20. Ijrochining aybi bilan yetkazilgan zararning miqdorini aniqlash uchun tomonlar vakillari (yoki davlat baxolash xizmati)dan iborat komissiya tuzilishi mumkin. Bunda, zarar miqdori tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilib, komissiya a'zolari tomonidan tasdiqlanadi. Nizo mavjud bo'lgan taqdirda zarar miqdori sudning qarori bilan aniqlanadi.

### **21. Quyidagi hollarda Ijrochi zararni qoplama yordi:**

ijrochi shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni to'liq bajargan bo'lishiga qaramasdan zarar uchinchi shaxslarning jinoiy harakatlari natijasida yetkazilgan bo'lsa va bu sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan tasdiqlansa;

qabul qilish-topshirish jurnalida qayd etilmagan mulkka zarar yetkazilganda;

buyurtmachining xodimlari tomonidan yoki ularning aybi bilan zarar yetkazilganda.

22. Mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganlik uchun belgilangan neustoyka (jarima, penya) to'lash hamda zararni qoplash Tomonlarni Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

## **6-BOB. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

23. Mazkur shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish vaqtida taraflar o'rtaida kelib chiqadigan nizolar, shuningdek yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nizo kelib chikkan xudduddagi iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

## **7-BOB. FORS-MAJOR**

24. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu bajarmaslik Shartnoma tuzilgandan keyin paydo bo'lgan, yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulorra va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

25. Yengib bo'lmaydigan kuch holatiga havola qiluvchi Tomon boshqa Tomonni bunday holatlar boshlanganligi va tamom bo'lganligi to'g'risida ikki kun ichida yozma shaklda xabardor qilishi shart. Ushbu muddat ichida xabar bermagan Tomon mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida ko'rsatishga haqli emas.

Fors-major holatlariga suv toshqinlari, yer qimirlashi va boshqa tabiiy halokatlar, shuningdek epidemiyalar, yong'inlar, portlashlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mazkur Shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan qarorlari kiradi.

26. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo'lmas kuch holatlari amal qilgan davrga mutanosib ravishda kechiktiriladi. Agarda fors-major uch oy davom etsa Tomonlar mazkur Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

## **8-BOB. YAKUNIY QOIDALAR**

27. Mazkur Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Mazkur Shartnoma budget tashkilotlari yoki budget mablag'lari oluvchilari bilan tuzilganda g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng kuchga kiradi.

28. Mazkur Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilganda hamda Buyurtmachi va Ijrochining vakillari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiydir.

Tomonlar mazkur shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdan rad javobi olganidan keyingina yoki o'ttiz kunlik muddatda javob olmaganidan keyin, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

### 29. Shartnomaning amal qilish muddati quyidagicha belgilanadi:

Budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilari bo'yicha - belgilangan tartibda g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab **2022-yilning 31-dekabr kuni oxirigacha**.

30. Agar texnik qo'riqlash vositalari Buyurtmachining aybi bilan ishdan chiqqan, kapital yoki joriy ta'mirlashni talab qilsa, biroq Buyurtmachi buni rad etsa, Ijrochi Buyurtmachiga uch kun oldin yozma ma'lum qilgan holda alohida ob'ektlarni qo'riqlashni rad etishi mumkin.

31. Buyurtmachi ketma-ket uch marta mazkur Shartnomaning 10-bandida ko'rsatilgan to'lovni belgilangan muddatda to'lamasa, Ijrochi mazkur shartnomani Buyurtmachini yozma ravishda ogohlantirgan holda bir tomonlama bekor qilishga haqli.

32. Ijrochi ketma-ket uch marta post va patrul yo'nalishlarida qo'riqlash tartibini buzsa, Buyurtmachi mazkur shartnomani Ijrochini yozma ravishda ogohlantirgan holda bir tomonlama bekor qilishga haqli.

33. Tomonlar mazkur Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish to'g'risida 30 kun oldin yozma ravishda ma'lum qiladi.

34. Ob'ektning xususiyatidan kelib chiqib Tomonlar mazkur Shartnomaga qonun hujjalariغا muvofiq huquq va majburiyatlarini nazarda tutuvchi qo'shimcha bandlar kiritishlari mumkin.

## 9 BOB. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI:

### Ijrochi

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi  
Namangan viloyati  
Qo'riqlash boshqarmasi

Yuridik manzili: Namangan shahar, Sirg'ali ko'cha, 20 "A"-uy.

Tel: 69-227-28-43, 69-227-15-55.

Bank ma'lumotlari: Markaziy bank XKKM  
Namangan viloyat Bosh boshqarmasi

Xisob raqami: 21596000100193328001

MFO: 00021 STIR: 200046854

OKONX: 97920

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi  
Namangan viloyati Qo'riqlash boshqarmasi  
boshligi'i podpolkovnik



X.E.Abdullayev

### Buyurtmachi

Kosonsoy tumani bolalar-o'smirlar  
sport maktabi

Yuridik manzili: 81-82-04 - 102/7


Tel: 69-65-81-725

Bank ma'lumotlari: Mark. bank XKKM. Tuz

X/r: 100022860142074085610245001

MFO: 00014 STIR: 104238304

OKONX: 00140 / 244 - 20112243



Моҳитхонада оид

*Намонга бисодин  
Курбонай Гулдорум  
юрасин Абдурраҳимов*

*№ 2730*

10 m. 201100100 u-724

«TASDIQLAYMAN»

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi  
Namangan viloyati Qo'riqlash boshqarmasi  
boshlig'i qo'shish hujjat

X.E.Abdullayev

«  
2022 yil  
X. E. Abdullayev  
X. E. Abdullayev

Qo'riqlash bo'yicha TQM tarkibini saqlab turish uchun qilinadigan sarf-xarajatlar SMETASI



Ruboraf 2022 yil

*He Mazyor kureb*

T/r	Qo'riqlash ob'ekt nomi	Manzili, telefon raqami	O'rnataligan MQT vostitalari	Qo'riqlash turi	Postlar soni	Qo'riqlash vaqt (soat)		O'rtacha bir oylik qo'riqlash soati	Qo'riqlash narxi (so'm)	
						Ish kunlari	Bayram kunlari		Dam olish	O'rtacha bir bir songa oyga
1		2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Qorovulkona	Kosonsoy tumani, Kosonsoy shaharchasi	MQTV	Tashvish tugmasi	1	09--16	09--16	09--16	213	3128
2		Binoga o'rnataligan MQT vositalariga ko'rsatilgan qo'shimcha (shartli birlik) xizmati uchun		Jami:	1				1,14	29547
										33684
										699948

Ko'rsatilgan xizmat uchun bir oylik xizmat haqqi:

699948 (olti yuz to'qson to'qqiz ming to'qqiz yuz qirq sakkiz) so'm.

Namangan viloyat QB MIB  
boshlig'i leutenant

A.Maxmudov

"*24*" *жавар* даги 2022йилдаги №2730сонли шартномага илова

Булим 7083 кичик булим 610 боб 245

Ойлар номи	Жами шартнома буйича			
	уртacha куриклаш соати	1 соат нархи	кушимча киймат солиги	суммаси
Январ	213	3128	33684	699948
феврал	213	3128	33684	699948
март	213	3128	33684	699948
1-чорак жами				2099844
апрел				
май				
Июнь				
2-чора жами				
июль				
Август				
Сентябрь				
3-чорак жами				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
4-чорак жами				
<b>Жами</b>				<b>2099844</b>

Таъминотчи



Истемолчи

"*24*" *жавар* даги 2022йилдаги №2730сонли

шартномага илова

Булим 7083 кичик булим 610 боб 245

Ойлар номи	Жами шартнома буйича			
	уртacha куриклаш соати	1 соат нархи	кушимча киймат солиги	суммаси
Январ	213	3128	33684	699948
феврал	213	3128	33684	699948
март	213	3128	33684	699948
1-чорак жами				2099844
апрел				
май				
Июнь				
2-чора жами				
июль				
Август				
Сентябрь				
3-чорак жами				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
4-чорак жами				
<b>Жами</b>				<b>2099844</b>

Таъминотчи



Истемолчи